



**OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA KREATIV
FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH (TARIX
YO'NALISHI TALABALARI MISOLIDA)**

*Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy va amaliy fanlar fakulteti Tarix
yo'nalishi 3-bosqich talabasi
Olimova Zulfiyaxon Ibrohimjon qizi
zulfiyaolimova98@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lismuassasalarida tahlil oluvchi talabalarda kreativ fikrlash ko'nikmalari shakllantirish va rivojlanish haqida batafsil ma'lumorlar berilgan. Talabalarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda mahoratli pedagoglarimizning va professor o'qituvchilarining qanday sifatlarga ega bo'lishlari, talabalarda qanday qilib bu kabi zamonaviy fikrlash ko'nikmalari shakllantirish kerakligi masalalariga ham alohida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kreativlik, talaba, yaratish, fikrlash, fundamental, ta'litmizimi, tadqiqot metodi, kreativ metod, kreativ muhit, muammoli – qidiruv.

Аннотация: В этой статье дается подробная информация о формировании и развитии навыков креативного мышления у студентов, обучающихся в высших учебных заведениях. Отдельно были затронуты вопросы о том, какими качествами должны обладать наши квалифицированные педагоги и преподаватели при формировании у студентов навыков креативного мышления, как формировать у студентов навыки современного мышления.

Ключевые слова: креативность, ученик, созидание, мышление, фундаментальность, система образования, метод исследования, креативный метод, Креативная среда, проблемно – поисковая.



Annotation: This article provides detailed information on the formation and development of CREATV thinking skills in students studying in higher education institutions. Particular attention is also paid to the issues of what qualities our teachers and professor teachers, who are skilled in the formation of creative thinking skills in students, how modern thinking skills like this should be formed in students.

Keywords: creativity, student, creation, thinking, fundamental, educational system, research method, creative method, creative environment, problem – search.

Bugungi globallashuv davrida oliy ta’lim muassasalarida tahsil oluvchi talabalarda turli xil zamonaviy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur. Shunday zamonaviy ko‘nikmalardan biri kreativ fikrlash ko‘nikmasi hisoblanadi. Talabalarimizda kreativ fikrlash o‘zi nima degan savol tug‘ilishi mumkin. Biz avvalo kreativ o‘zi nima degan savolga alohida to‘xtalib o‘tamiz. Kreativlik bu – lotincha, inglizcha “create” – yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor degan ma’nolarni bildiradi. Individning yangi g’oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma’nosini ifodalaydi[1]. Bugungi kunda kreativ yondashuv va yutuqlar dunyo miqyosida fan va texnologiyalardan tortib, falsafa, san’at va ijtimoiy fanlar kabi sohalarda insoniyat tamaddunini ilgari surmoqda. Kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy g‘oyalar berishdan ko‘ra kattaroq va muhimroq narsadir. U insonlarga ba’zan murakkab sharoitlarda, yanada yaxshiroq natjalarga erishishga imkon beruvchi bilim va tajribaga asoslangan ko‘nikmadir. Butun dunyo bo’ylab jamiyatlar va tashkilotlar muammolarni hal etishda innovatsion bilim va yaratuvchanlikka tobora ehtiyoj sezmoqda. Bu esa o‘z navbatida innovatsiya va kreativ fikrlash ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Kreativ fikrlash ta’siri butun bir jamiyatga sezilarli innovatsiya turlarining ortida turishi rost, lekin u hozirgi



vaqtida universal hamda tenglashtiruvchi xususiyatga ega femomen hamdir, ya'ni jamiyatdagi har qanday shaxs u yoki bu daraajada kreativ fikrlash qobiliyatiga ega.

Ta'lismiz sohasida faoliyat olib boruvchi mutaxassis va psixologlarning fikriga ko'ra, ijodiy faoliyat bilan bog'liq fikrlash jarayonlarida mashg'ul bo'lish deb tushunilgan kreativ fikrlash bir qator boshqa shaxsiy ko'nikmalarning ham rivojlanib kamol topishiga olib keladi. Bular jumlasiga metokognitiv qobiliyat, insonlar bilan muomala qilish va shaxsning o'zini yaxshiroq anglash ko'nikmalari, muammolarni tez va samarali hal etish ko'nikmalari kiradi. Shu bilan birga jamiyatda shaxsning kamoloti, ta'lismiz olish jarayonidagi muvaffaqiyat, kelajakdag'i kasbiy sohadagi muvaffaqiyat va jamoatchilik orasidagi obro'si ham insonning kreativ fikrlash ko'nikmasiga bevosita bog'liq. Kreativlik harakatlantiruvchi kuchga ega hisoblanadi. U ma'lumotni yaratish va o'zlashtirish, yangi yoki takomillashtirilgan kombinatsiyalarni yaratish qobiliyatiga ega. Insonlarda mavjud muammolarni aniq shakllantirish hamda ularni oson hal qilish qobiliyatiga ega, shuningdek, u faol harakat qilmaydi. Nafaqat o'zining maqsadlari uchun balki jamiyat manfaatlari uchun ham samarali hisoblanadi. Kasbiy va ijtimoiy sohadagi o'zgarishlarga muvaffaqiyatli moslasha oladigan, hozirgi zamon va kelajak inqirozi doirasidagi voqe'a va hodisalarini aks ettirishga, tahlil qilishga tayyor ijodiy shaxsga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

Talabalar oliy ta'lismiz muassasalaridagi ta'limga tugatganlaridan keyin bitiruvchilarining faqatgina ma'lum bir qismi murakkab kasbiy muammolarini hal etishga erishadi. Bundan ko'rishimiz mumkinki, bo'lajak mutaxassisni tayyorlash jarayoni nafaqat fundamental va kasbiy bilimlarni uzatishni balki, talabaning kreativ qobiliyatini rivojlantirishni uning o'zini o'zi anglashda yordam berish, mustaqillik, harakatchanlik va mehnat qobiliyatini faollashtirishni nazarda tutishi kerak. Oliy ta'lismizda tahsil oluvchi talabalarning motivatsiyasi, qiziqishi va moyilligi undividuallikka, iste'dod va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan yangilangan ta'lismiz samaradorligining muhim manbasi hisoblanadi.



Biz talabalarda kreativ fikrash ko‘nikmalari rivojlantirish uchun avvalo ularda kreativ ta’lim muhitini shakllantirishimiz zarur. Kreativ ta’lim muhiti – bu har bir talaba uchun shaxsiy makon, uning qadriyatlari, motivlari tizimiga asoslangan va o‘zini o‘zi tashkil qilish qobiliyatiga ega, uning talablari, intilishlari va ehtiyojlariga moslashuvchanlikdir. Kreativ muhitda o‘qiyotgan talabalarga ijodiy tafakkurga ega bo‘lgan o‘qituvchini kuzatish natijasida ijodiy vazifalarni bajarishga qiziqish, ijodiy fikrlashga moyillik asta – sekin o‘sib boradi[2].

Kreativ ta’lim muhiti o‘zining ijodkorlik xususiyatiga ko‘ra, ta’lim jarayonida katta ahamiyatga ega bo‘lgan tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga oib keladi. Tarix darsi mashg’ulotlarida o‘quvchilarning ijodkorlik ruhini rivojlantirishda auditoriyada bahs, munozara va eng samarali usullardan biri hisoblangan debatlar tashkil qilish maqsadga muvofiqli. Debatlar orqali o‘quvchilarni tanqidiy fikrlash, turli masalalarni o‘rganish va o‘zlari haq ekanliklariga atrofdagi boshqa insonlarni ishontirishga o’rgatadi. Bunday vaziyatda o‘qituvchiga qo‘yiladigan talab asosan o’tkaziladigan debatning mavzusi aniq, tasdiqlovchi tugallangan fikr shaklida bo‘lishini tashkil qilish va ta’minalashdan iborat bo‘ladi. Misol tariqasida aytadigan bo’lsak, tarix darslarida quyidagi mavzularda debatlar o’tkazishimiz mumkin: 1. Fransiya – Prussiya urushi yagona nemis davlatini tashkil topishi uchun shart edi. 2. Abdullaxon II ning markazlashtirish siyosati Shayboniyalar davlatining inqiroziga sabab bo‘ldi. 3. Ingliz – rus raqobati Chor Rossiyasining O’rta Osiyoni bosib olishiga asosiy sabab bo‘ldi. 4. XVIII asrda islom dini. Dinni davlatdan ajratish shart edi[3]. Tarix darslarida debat o’tkazish uchun o‘qituvchi va talabalarning o‘zi ham maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lishi hamda debatning mavzusi oldindan e’lon qilinishi shart.

Kreativlikni odatga aylantirish orqali ta’lim oluvchilarda ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli rivojlantirish mumkin. Bu jarayonda o‘sha fanning mazmuni chuqur anglab tushunish, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini baholashda



qo'llayotgan usul va vositalar katta ahamiyatga ega[3]. Kreativ muhitda talabalar o'rganilayotgan mavzuning mazmunini, ta'lim axborotlari o'rtasidagi bog'liqlikni anglash va tushunib yetish imkoniyatlariga ega bo'ladilar va u haqida fikr yurita boshlaydilar. O'qituvchi ijodkor bo'lishi shart emas, lekim dars mashg'ulotlarini ijodkorlik ruhida tashkil etish, ta'lim jarayonida yangi g'oyalarni sinab ko'rishga intilish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi vaqtida pedagoglar ijodkorlik qobiliyatlarga ega bo'lishi juda muhimdir. Chunki ta'lim – tarbiya jarayonini tashkil etishda an'anaviy yondashuvlardan farqli o'laroq, kreativlik noaniqlikka toqat qilmaydi, bir xilda fikr yuritmaslikka, o'ziga xoslik va tashabbuskorlik ko'rsatishga yordam beradi. Kreativ fazilatlarga ega bo'lgan o'qituvchi o'z kasbiy faoliyatini yangi, ilg'or g'oyalar asosida tashkil etadi, talabalarning o'quv faoliyatini, shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g'oyalarni yaratishga, doimo bir xil fikr yuritmaslikka, o'ziga xoslik va tashabbuskorlik ko'rsatishga yordam beradi. Oliy ta'lim muassasalarida tahsil oluvchi talabalarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda zarur bo'lgan kreativlikni rivojlantirishda bir qator innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi va quyida ulardan ba'zilariga to'xtalib o'tamiz:

Tadqiqot metodi – talabalarning muammoli qidiruv o'quv faoliyatining barcha bosqichlarini o'zlastirishga, ularda tadqiqotchilik ko'nikmalarini tahliliy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan o'qitish usuli hisoblanadi. Muammoli – qidiruv faoliyatining barcha bosqichlari talabalarning o'zi tomonidan amalga oshiriladi, tadqiqot jarayonini modellashtiradi va sub'yektiv yangi natija oladi.

Kreativ metod ta'lim oluvchilarning muammoli – izlanish faoliyatining barcha bosqichlarini o'zlashtirishga, tadqiqotchilik ko'nikmalarini, tahliliy va ijodiy qibiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan o'qitish usuli. Muammoli – qidiruv faoliyatining barcha bosqichlarini talaba tomonidan amalga oshiradi, haqiqatda tadqiqot jarayonini amalga oshiradi va ob'yektiv yangi natija oladi[4].



Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, oliy ta’lim muassasalari talabalarida kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish bugungi axborot asri va innovatsion rivojlanish sharoitida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy jamiyat oldida turgan muammolarni hal etishda standart yondashuvlar o‘z samarasini yo‘qotayotgan bir paytda, ijodiy va yangicha fikrlashga ega bo‘lgan shaxslar tobora qadrlanmoqda. Shu bois, oliy ta’lim tizimi nafaqat nazariy bilimlarni berishga, balki talabalarning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga ham yo‘naltirilishi zarur. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kreativ fikrlash insonning intellektual imkoniyatlarini kengaytirish, mustaqil qaror qabul qilish, yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish, innovatsion g‘oyalarni ilgari surish kabi muhim kompetensiyalarni shakllantiradi. Aynan ushbu ko‘nikmalar orqali talabalar jamiyatda faol, tashabbuskor va mas’uliyatli bo‘lib yetishadi. Kreativ fikrlashni rivojlantirishning asosiy omillari - o‘quv dasturlarini zamonaviy talablar asosida qayta ko‘rib chiqish, interaktiv va talaba markazli ta’lim metodlarini keng joriy etish, mustaqil fikrlashga undovchi topshiriq va mashg‘ulotlarni ko‘paytirish, talabalarning qiziqishlari va shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda ularni amaliyotga yo‘naltirishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. S.Toshtemirova (2020). Ta’lim sifati va uni demokratlashtirish ilmiy muammo sifatida // Uzluksiz ta’lim.
2. S.Haydarov Pedagog – o‘qituvchilarda axborot kommunikatsiya ko‘nikmasini shakllantirish asoslari. “Science and Education” Scientific Journal October 2020.
3. M.Turdiyeva Oliy ta’lim muassasalari talabalarida pedagogik tafakkurni shakllantirish. Toshkent. Nizomiy nomidagi TDPU, 2008.



4. N.Muslimov va boshqalar. Kasbiy ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. Toshkent – 2013.
5. R.Po‘latov (2023) Yosh avlodda ma’naviy axloqiy sifatlarni rivojlantirish. Academik Research in Educational Sciences.
6. Sh.Isroilova , D.Sayfullayeva “Innovatsion yondashuv asosida talabalarni kreativligini rivojlantirish xususiyatlari” Образование и инновационные исследования 2023 год № 12.
7. <https://wikipedia.org> sayti
8. <https://ziyouz.com> sayti